



LEGAL TECH STARTAPLARI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN MUVAFFAQIYATLI BIZNESGACHA.

O'g'iloy Ahmadaliyeva Ikromjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
ogiloyahmadaliyeva192@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17529740>

Annotatsiya: Mazkur maqolada legal tech sohasining bugungi kundagi dolzarbligi hamda yuridik sohani o'zgartirishga ulkan hissa qo'shayotgan startaplar va ularning O'zbekistondagi milliy modellari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada kichik biznes egalari va tadbirkorlar uchun huquqiy yordam berishga mo'ljallangan yangi startap loyiha yaratish haqida taklif ilgari suriladi. Xulosa sifatida esa, legal tech startaplarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi hamda legal tech sohasi O'zbekiston iqtisodiy o'sishining yangi yo'nalishi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Legal tech, startap, LegalZoom, Clio, TUZUK AI, yurxizmat.uz, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, LEXOO, SpotDraft, DoNotPay, Lex AI.

Introduction:

So'nggi yillarda yangidan yangi texnologiyalar insoniyat tomonidan yaratilgan deyarli barcha sohalarga kirib bormoqda. Yangi innovatsion texnologiyalarga duch kelmaslik mushkul holatga aylanayotgan davrda barchamiz yashab kelmoqdamiz. Ular hayotimizning har bir jabhasiga o'zini ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Garchi texnologiyalarning huquq amaliyotiga yoki huquqning mohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqidagi qarashlar bugungi kunda yangilik bo'lmasa-da, so'nggi yillarda huquqiy texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish hamda ular haqidagi bahslar keng jamoatchilik tomonidan ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xususan, legal tech (yoki kengaytmasi sifatida Legal Technology – Huquqiy Texnologiyalar) deb ataluvchi sohaga ham innovatsion texnologiyalar kirib borib, yuridik xizmatlar ko'rsatish va huquqiy amaliyotlarni raqamlashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirmoqda.

Shu o'rinda savol tug'iladi: " Legal tech o'zi nima?" va " U qanday vazifalarni bajaradi?" Qisqa qilib aytganda, legal tech – bu yuridik xizmatlarni ko'rsatish va ularni amalga oshirish jarayonlarida texnologiyalardan samarali foydalanishdir. Bu huquqiy sohani yangi bosqichga olib chiqish ya'ni modernizatsiyalash uchun zarur bo'ladigan sohalardan biridir. U advokatlarga, yuridik firmalarga, nafaqat yuridik sohaning har qanday yo'nalishida ishlovchi shaxslarga, balki fuqarolarga ham o'zining huquqiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan barcha huquqiy texnologiyalarni o'z ichiga oladi.



Legal tech sohasidagi texnologiyalarning tobora murakkablashib borayotgani, ularning kengroq tarqalishi va qo'llanilishi natijasida ularning oqibatlarini haqida ikki qarama-qarshi yondashuv shakllandi. Birinchi yondashuvda huquqiy texnologiyalarning huquq tizimini samaraliroq qilish, adolatli bo'lishni osonlashtirish imkoniyatlari e'tirof etiladi. Ikkinchi yondashuvda esa bu texnologiyalar mavjud kamchiliklarni ko'paytirishi yoki adolatning shaffofligiga zarar yetkazish xavfini kuchaytirishi mumkin. Bu ikki qarash bir-biriga ziddek tuyulsa-da, ularni aniq bir murosaga keltirish mumkin, chunki bitta oddiy haqiqat mavjud: huquqiy texnologiyalar turlichadir. Shunga qaramay, ularning bu xilma-xilligini to'liq ifodalab bera oladigan, aniq va chuqur tushunilgan konseptual yondashuv hali yetarli darajada shakllanmagan. Hozircha bizda mavjud bo'lgan terminologiya, asosan, texnologiyalar qaysi huquq sohasida qo'llanishiga asoslanadi. Shu sababli, Legal Tech atamasi tarkibiga "fintech", "regtech", "smart contract", "e-discovery" kabi sohalarni kiritishimiz mumkin. Bu tasnif texnologiyaning qayerda yoki qachon qo'llanilishi haqida ma'lumot bersa-da, ularning boshqa jihatlarini yoki ular o'rtasidagi o'xshashliklarni to'liq ochib bera olmaydi¹. Bu kabi texnologiyalar an'naviy yuridik amaliyotda ko'p vaqt talab qiladigan vazifa va topshiriqlarni avtomatlashtirishga yordam beradi hamda ularni tezroq va aniqroq qilishga ko'maklashadi. Masalan, legal tech sohasida yaratilayotgan texnologiyalar hujjatlarni qo'lda tayyorlash, sud yoki qonunchilik hujjatlarini qidirish amaliyotini soddalashtiradi.

Bundan tashqari, huquqiy texnologiyalar yuristlar ishini yengillashtiradi. Qog'ozbozlik ishlari, ma'lumotlarni izlash va sodda hujjatlarni tuzish kabi ishlarni bugungi kunda sun'iy intellekt va u asosida tuziladigan dasturlar bajarmoqda. Xuddi shunday legal tech sohasini rivojlantirayotgan yana bir omillardan biri bu undagi startap rejalarining mavjudligidir. Shunday ekan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – startap rejalarini va ularning O'zbekistondagi amaliy holatini tahlil etishdan iborat. Tadqiqot davomida o'zimga "Qanday qilib startap rejalarini orqali huquq amaliyotida samaradorlikni oshirish mumkin?" degan savolni qo'yaman. Mazkur savolga javob izlash orqali startap loyihalarining O'zbekiston huquq tizimiga qo'shadigan imkoniyatlari va kamchiliklari ko'rib chiqaman va amaliy takliflar beraman.

Methodology:

¹Journal Article

Defining legal technology and its implications

<https://academic.oup.com/ijlit/article/30/1/47/6563857>



Ushbu tadqiqotda men tavsifiy, tahliliy va argumentatsion metodlardan foydalanaman, zero tadqiqot davomida startaplarning yuzaga kelish tarixi va ularning rivojlanish tendensiyalari ochib beriladi. Avvalo, legal tech startaplarning lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. Bu so'z inglizchadan olingan bo'lib, "Legal Technology Start-ups" ya'ni huquqiy sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish va yuridik sohada hujjatlarni raqamlashtirishga yordam beruvchi loyihalar kabi ma'noda qo'llaniladi.

Startaplar paydo bo'lishiga bir necha sabablar bor edi. Bular:

1. Advokatlik xizmatlari qimmat va hamma uchun mavjud emasdi.

2. Sud jarayonlari sekin va byurokratik edi.

3. Kichik biznes egalari huquqiy yordamga muhtoj va ular uchun arzon yechim kerak bo'layotgandi. Bu kabi muammolarga yechim texnologiya edi. Shu tufayli insoniyat tarixida dastlabki startaplar vujudga kela boshladi.

Demak, legal tech startaplarning rivojlanishini tarixiy metodga tayanib tahlil qilsak, dastlabki ishga tushgan jahon miqyosidagi startap bu – LegalZoomdir. U 1999-yil iyul oyida AQShning Kaliforniya shtatida tashkil etilgan bo'lsa-da, rasmiy sahifalarda o'zining ish faoliyatini 2001-yildan boshlaganligi aytilgan. LegalZoomning asoschilari **Brain Lee, Brian Liu, Edward R. Hartman** va taniqli advokat **Robert Shapiro** hisoblanadi. Ularning LegalZoomni tashkil etishdan asosiy maqsadlari oddiy aholi va yangi tashkil etilgan kichik kompaniyaning biznes egalari uchun huquqiy xizmatlarni raqamli shaklda ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Bugungi kunda LegalZoomning bosh ofisi AQShning Kaliforniya shtatidagi Mountain View shahrida joylashgan. LegalZoom o'z faoliyatini dastlab **kompaniya tuzish, vasiyat (will) tayyorlash va oddiy huquqiy hujjatlar yaratish** xizmatlari bilan boshlagan. Vaqt o'tishi bilan u xizmat doirasini kengaytirib, **intellektual mulkni himoya qilish, muvofiqlik xizmatlari (compliance) va advokatlar tarmog'i orqali maslahat** berish tizimini ham yo'lga qo'ydi.²

Bugunga kunda ham LegalZoomning asosiy maqsadi o'zgarmagan bo'lib, u hamon huquqiy yordamni hamma uchun, ayniqsa kichik biznes egalari va advokatga katta to'lov qilishni istamaydigan shaxslar uchun qulay va sifatli xizmatni taqdim etib kelyapti.

Kompaniya 2021-yil 30-iyun kuni NASDAQ fond birjasiga chiqib, "LZ" belgisi ostida ommaviy aksiyalarini sotishni boshladi. Bu LegalZoom tarixida muhim bosqich bo'lib, kompaniya o'zining texnologiyaga asoslangan yondashuvi orqali an'anaviy advokatlik xizmatlaridan farqli, keng ommaga mo'ljallangan yangi

² LegalZoom rasmiy saytidan <https://www.legalzoom.com/>



modelni isbotlab berdi. Bugungi kunga kelib ya'ni 2025- yilda LegalZoom kichik bizneslar va shaxsiy foydalanuvchilar uchun huquqiy xizmatlar sohasida **innovatsion yetakchi** sifatida keng miqyosda tanildi,. Shu yili u "Formation Nation" kompaniyasini sotib oldi va o'zini biznesini yanada kengaytirdi. Ma'lumotlarga ko'ra u yilliga 4 milliondan ortiq mijozga xizmat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, LegalZoom ayni paytda yangi yaratilayotgan startaplarni ham qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bu kabi harakatlar natijasida LegalZoomning omma oldidagi zarurligi kuchayib dunyo hamjamiyatida yetakchi bo'lish o'rnini saqlab qolishiga turtki bo'lmoqda.

Keyingi yirik texnologik startaplardan biri bu – **Clio**. Clio — Kanadada joylashgan huquqiy texnologiya kompaniyasi bo'lib, advokatlik firmalari va huquqiy praktikalarni boshqarish uchun "**bulutga asoslangan**" («cloud-based») ilovalar taklif qiladi. "Biz advokatlar o'z firmalarini qanday boshqarishini yangicha tarzda belgilab bermoqdamiz — ular Clio orqali istalgan joyda, istalgan qurilma yordamida o'z ishini xavfsiz boshqarishlari mumkin" – deyiladi uning rasmiy sahifalarida.

Kompaniyani 2008-yilda umrboqiy do'stlar **Jek Nyuton (Jack Newton)** va **Rian Govro (Rian Gauvreau)** tashkil etishga qaror qilishdi. Ular o'z nutqlarida "Do'stlik va biznesni aralashtirma" deyishadi, bizningcha, aynan shu g'oya tufayli ularning ishida hammasi a'lo bo'lib kelmoqda.

Clio taqdim etayotgan huquqiy xizmatlarning kelajagi **bulutga asoslangan** bo'ladi va bunda mijoz markaziy o'rinni egallaydi. Ana shunday innovatsiyalarni rivojlantirish ijtimoiy o'zgarishlarga turtki beradi va yanada inklyuziv (ochiq va adolatli) huquq tizimini yaratadi. "Huquqiy tajribani markazga qo'ygan holda, biz jamiyatning huquqiy xizmatlardan foydalanish, ularni qabul qilish va ulardan bahramand bo'lish usullariga yanada chuqur ta'sir ko'rsatishimiz mumkin" – deyiladi.³

Clio ham xuddi LegalZoom kabi tezlik bilan ommalashayotgan kompaniyalardan biridir. Yiliga **150.000** dan ortiq yuridik mutaxassislar Clidan foydalanishmoqda. U dunyodagi **130** dan ortiq mamlakatda qo'llaniladi hamda **300** dan ortiq Clio ekotizimidagi ilova integratsiyasi hamkorlariga ega bo'lgan yagona kompaniya hisoblanadi. Clio **17** yildan buyon yuridik sohani o'zgartirib kelayotgan katta raqamlashtirilgan kompaniyadir.

Bundan tashqari, muvaffaqiyatli legal tech startaplarini rivojlantirayotgan bir nechta davlarni misol sifatida ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan: Buyuk Britaniya o'zining **LEXOO** platformasini **2014**-yilda tashkil etgan. Platforma

³ Clio about us <https://www.clio.com/about/>



advokatlar va mijozlarni onlayn tarzda bog'laydi. Lexooning misoli shuni ko'rsatadiki: huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish, onlayn vositalar bilan mijoz-advokat aloqasini soddalashtirish mumkin⁴.

Yana bir misol bu Hindistonda. **SpotDraft** kompaniyasi 2017-yilda tashkil etilgan bo'lib uning asoschilari: **Shashank Bijapur**, **Madhav Bhagat** va **Rohith Salim**. SpotDraft — ilg'or kompaniyalar uchun to'liq shartnoma avtomatlashtirish platformasidir. SpotDraft'ning sun'iy intellekt bilan quvvatlangan shartnoma hayotiy sikli boshqaruvi tizimi shartnoma bilan bog'liq barcha jarayonlarni butun hayotiy sikl davomida boshqaradi. Bunga uchinchi tomon hujjatlari, clickwrap shartnomalari, AI yordamida redlining (shartnomani tahrirlash va tahlil qilish), elektron imzo va aqlli shartnoma arxivi kiradi⁵. Hozirda SpotDraft dunyo bo'ylab yirik brendlar bilan hamkorlikni kengaytirib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston ham hozirda raqamli transformatsiya bosqichida va huquqiy xizmatlar asta-sekin raqamlashtirilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar legal tech sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida mamlakatdagi davlat xizmatlari va sud-huquq sohasi ham o'ziga onlayn xizmat ko'rsatishni qamrab olmoqda. Strategiyaning 15-bandida:

- elektron davlat xizmatlarini mobil qurilmalar va elektron hamkorlikning boshqa shakllari orqali ko'rsatishni yanada kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- axborot tizimlari va resurslarini keng joriy etishni nazarda tutuvchi idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarini ishlab chiqish va o'z vaqtida amalga oshirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan⁶.

Mamlakatdagi raqamlashtirishni amalga oshirish maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi qoshida maxsus muvofiqlashtirish komissiyasi tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi sifatida O'zbekistonda asta-sekin raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

Mana shunday jarayonlarda Legal tech ya'ni huquqiy texnologiyalar — mamlakat uchun yangi, lekin zarur yo'nalish sifatida paydo bo'lmoqda. Legal tech startaplari huquqiy xizmatlarni o'zgartirmoqda va ularni raqamlashtirmoqda. Innovatsion texnologiyalar yordamida huquq sohasi yanada samarali bo'lib, ko'plab insonlarga yordam berib kelyapti. Shuningdek, O'zbekiston uchun

⁴ LEXOO about us <https://www.lexoo.co.uk/>

⁵ SpotDraft about us <https://www.spotdraft.com/aboutus>

⁶ "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



LegalZoom va Clio kabi huquqiy xizmatlarni amalga oshiruvchi o'xshash huquqiy xizmatlarni ishlab chiqish uning jahon bozoridagi yangi huquqiy-iqtisodiy imkoniyatlarini ochib beradi. O'zbekistonda ham legal tech yo'nalishida faoliyat yuritayotgan bir nechta startap va tashabbuslar mavjud. Bulardan Tuzuk AI platformasini ko'rib chiqamiz.

Tuzuk AI – O'zbekistonda huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan platformadir. U advokatlik firmalari va yuridik mutaxassislar uchun sun'iy intellektga asoslangan huquqiy platformadir. U AI chat, hujjat tayyorlash va tahlil qilish vositasi, shuningdek huquqiy hujjatlar uchun aqlli AI qidiruv funksiyalarini taklif qiladi. Kelajakda yanada kuchliroq imkoniyatlar qo'shilishi rejalashtirilgan — bularning barchasi bitta oson ishlatiladigan platformada mavjud. Tuzuk AI Ichida bir necha qismlar mavjud bo'lib:

- **AI chat** – foydalanuvchi huquqiy savol kiritadi va tizim tezda javob beradi.
- **Document Drafter & Analyzer** – hujjat tayyorlash, hujjatlarni tahlil qilish, shartnomalarni tahrirlash, xavflarni aniqlash funksiyalarini bajaradi.
- **Smart AI Search** – O'zbekistondagi qonunchilik, me'yoriy hujjatlar ichida tezkor qidiruv imkoniyatini taqdim etadi.
- **Til qo'llab-quvvatlashi:** o'zbek, rus, ingliz tillarida ishlashi mumkin⁷

Tuzuk AI bozorni kengaytirish bosqichida – ya'ni hujjat tayyorlash, avtomatlashtirish va huquqiy qidiruv yo'nalishida faoliyat yuritmoqda. Bu dasturni bir qancha afzalliklari mavjud bo'lib u to'laqonli O'zbekiston qonunchiligiga moslashgan va u bir necha tillarda faoliyat ko'rsata oladi. Shu bilan birga dasturdan foydalanishning bir necha tariflari bor, ya'ni bunda o'zingiz xohlagan tarifni sotib olish orqali dasturdan foydalanishingiz mumkin. Quyida tarif rejalarining sotib olish narxlariga to'xtalib o'tamiz.

Shunday qilib, Tuzuk AI O'zbekistondagi O'zbekistonda huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan platformadir.

Results:

Tadqiqotlarim natijasida men, Legal tech sohasida yaratilayotgan startaplarning huquqiy sohaga ta'sir etadigan afzallik va kamchiliklarni aniqladim. Demak, Legal tech startaplarning **afzalliklari:**

1. Tezkorlik va samaradorlik

⁷ TUZUK AI rasmiy web-site <https://tuzuk.ai/en>



Sun'iy intellektga asoslangan startaplar o'z vazifalarini aniq va tezroq bajarishadi. Advokatlar yoki yuridik soha xodimlari ko'p vaqt sarflaydigan ishlarni AI ga asoslangan tizimlar orqali tezroq bajarishadi.

2.Narx jihatidan arzonroq

Oddiy aholi yoki kichik biznes egalarining har doim ham huquqiy yordamga qurbi yetmasligi mumkin. Bilamizki, an'anaviy yuridik xizmat turlari juda ham qimmat. Ana shunday vaziyatda ularga arzonroq yechimlar taklif qila olishadi.

3.Ma'lumotlarni tezkor qidirish va tahlil qilish

Yangi innovatsion texnologiyalar yordamida bizda katta-katta qonunlarni, normativ-huquqiy hujjatlarni qidirish va ularni tahlil qilish imkoniyati yartailadi. Istalgan ma'lumotlarni bir necha soniyalarda topa olamiz.

4.Istalgan joyda va vaqtda foydalanish

Biz qulaylikka mo'ljallangan startaplar orqali istalgan joyda va vaqtda o'zimizda mavjud bo'lgan huquqiy muammolarga yechim topa olamiz. Ishdan so'ng uyga kelib kun davomida qiziqtirgan huquqiy savollarga javob olamiz va bunda bizdan talab etiladigan yagona narsa internetdir. Internet mavjud bo'lsa uydan chiqmay turib ham bizda huquqiy yordam olish imkoniyati tug'iladi.

Kamchiliklari:

1.Xatolik ehtimoli

Sun'iy intellektga asoslangan startaplar ba'zan biz so'ragan narsalarni noto'g'ri tahlil qilishi va noto'g'ri tavsiyalar berishi mumkin.

2.Javobgarlik masalasi

Agar biz sun'iy intellektga asoslangan startaplardan foydalansak bizning oldimizda, albatta, javobgarlik masalasi turadi ya'ni mashinaga asoslangan ishlash tizimi xato qilib qo'yganda bizda savol paydo bo'ladi. " Bu xató uchun kim javobgar: uni yaratgan shaxsmi yoki undan foydalangan shaxs?"

3.Maxfiylik masalasi

Biz dasturlardan foydalanayotganda ularga shaxsga doir ma'lumotlarni kiritamiz. Bunda shaxsiy ma'lumotlarimizni onlayn platformalarda saqlash bizga xavf tug'dirishi mumkin.

And discussion:

An'anaviy ravishda, huquqiy xizmatlar qat'iy tartibga solingan bo'lib, bu qonunlarni talqin qilish kabi sohalarda katta tajriba talab qilinishiga asoslangan. Shu cheklovlarga qaramay, uzoq vaqtdan beri huquqiy amaliyot islohg muhtoj sanoat sifatida tan olingan. Huquqiy maslahatlar ko'pchilik uchun qimmat va erishib bo'lmas bo'lib qolmoqda. Bu umumiy holat xarajatlar, joylashuv kabi



to'siqlar mavjudligini aniq ko'rsatadi, bu esa adolatli va arzon huquqiy xizmatlarga kirishni cheklaydi.

Katta va barqaror advokatlik firmalari odatda soatlik qimmat tarif asosida xizmat ko'rsatadi. Ko'pincha, bu firmalar ish vaqt zonalarini bo'yicha samarali ishlay olmaydi. Ular katta bo'limlari va ofis xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarga ega. Innovatsiya esa biznesning bir qancha sohalarida xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan, ba'zi firmalar AI texnologiyasini joriy qilgan bo'lib, bu bilan ko'chmas mulk operatsiyalarini amalga oshirish vaqti yarimga kamayadi, har bir operatsiyada o'rtacha 1 000 yevro tejash imkonini beradi⁸.

Shu sababli so'nggi paytlarda legal tech startaplarning paydo bo'lishi bilan huquqiy sohada sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda. Ushbu startaplar sun'iy intellekt, blockchain va avtomatlashtirish kabi ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va huquqiy xizmatlarga kirishni osonlashtirishga intilmoqda. Legal tech startaplarning huquq sohasini modernizatsiya qilishdagi roli kundan kunga ortmoqda.

Masalan, 2024 - yilda **American Bar Association** tomonidan o'tkazilgan so'rovga ko'ra, advokatalr o'zlarining firmalarida sun'iy intellektga asoslan yangi platformalardan foydalanishni 2023 - yilda **11%** dan **30%** ga oshirgan. Yoki global miqyosdagi reytinglarga qarasa, **2025** - yilda huquqiy xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar o'zlarining **70%** ga yaqin xizmatlarini legal tech startaplariidan foydalangan holda amalga oshira boshlagan. O'zbekiston misolida ham o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilayotgan sun'iy intellektga asoslangan **Lex AI** platformasi statistik ma'lumotlarga ko'ra, dastlabki **5 oy** ichida **34 000** dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarni chatbot shaklida tahlil qilgani aytilgan, Bular shunchaki raqamlar yoki foizlar emas, balki sun'iy intellektga asoslangan legal tech mexanizmlarining huquq sohasiga qay darajada ta'sir etayotganligining ko'rsatkichidir.

Mazkur tadqiqotni men o'zimning takliflarim bilan yanada kengaytirmoqchiman. Hammamizga ma'lum, O'zbekistonda huquqiy hujjat tayyorlash va taqdim etish ancha qimmat jarayon hisoblanadi. Kichik biznes egalari yoki yangi ish boshlayotgan tadbirkorlarda moliyaviy tomondan qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Shu sababli, yangi **LegalContractDocuments.uz** platformasi yaratilishi tarafdoriman. Bu platforma o'zida shartnoma tuzish bilan bog'liq onlayn xizmatlarni o'z ichiga oladi ya'ni

⁸ Academic Journal: The Role of Legal Tech Startups in Transforming the Legal Industry: Communicating Innovation in Law. <https://www.researchgate.net/>



foydalanuvchi shartnoma yoki huquqiy hujjat uchun ma'lumotlarni kiritadi. Sun'iy intellektga asoslangan tizim tayyor hujjatni yartadi keyin hujjatni tahlil qilib unda o'zgartrilishi yoki noaniq bo'lgan joylarni aniqlab ular yuzasidan ogohlantirish beradi. Bu g'oya kichik biznes egalari va tadbirkorlar uchun foydali bo'ladi. Platforma orqali yuristga murojaat qilmay turib ham o'zi shartnoma va boshqa hujjatlar tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu g'oyani amalga oshirish uchun, avvalo, O'zbekiston va xalqaro bozor tahlini o'rganish lozim. Shunga o'xshash platformalar, masalan, DoNotPay, SpotDraft, Tuzuk AI ning qanday ishlashini tahlil qilish kerak. Bugungi kunda foydalanuvchilar qaysi turdagi shartnomalarni ko'proq yaratayotganligi tadqiq etish va platforma uchun yillik yoki oylik obuna tariflarini joriy etish lozim. Bu kabi yaqin kelajakka va uzoq istiqbolga mo'ljallangan legal tech startup loyihalari yuridik sohani modernizatsiyalash uchun zarur bo'lgan omillardan biri.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, Legal Tech – bu faqat texnologiya emas, balki huquqni oddiy aholiga sodda mexanizmlar orqali tushuntiruvchi soha. Legal Tech startaplari esa — bu nafaqat texnologik yangilik, balki huquqiy axborotlarni raqamlashtirishga qaratilgan, ishlarni tez va samarali usulda bajarishga mo'ljallangan innovatsion g'oyalardir. O'zbekistonda bu yo'nalish endigina shakllanmoqda, biroq u rivojlansa mamlakatimiz uchun yangi eshiklarni ochadi. Shu sababli Legal Tech startaplari mamlakat uchun ijtimoiy va iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Journal Article: Defining legal technology and its implications <https://academic.oup.com/ijlit/article/30/1/47/6563857>
2. LegalZoom rasmiy saytidan <https://www.legalzoom.com/>
3. Clio about us <https://www.clio.com/about/>
4. LEXOO about us <https://www.lexoo.co.uk/>
5. SpotDraft about us <https://www.spotdraft.com/aboutus>
6. “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
7. TUZUK AI rasmiy web-site <https://tuzuk.ai/en>
8. Academic Journal: The Role of Legal Tech Startups in Transforming the Legal Industry: Communicating Innovation in Law. <https://www.researchgate.net/>